

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Qurbonova Marg'uba</i> O'ZBEK TILI VA TIL SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA ZAMONAVIY OMMALASHTIRISH VOSITALARI	13-15
<i>Polvanov Azim Kuchkarovich</i> AMIR TEMUR QO'SHINIDA HARBIY TA'MINOT VA ASKAR SAFARBARLIGINING MANBALARDA YORITILISHI	16-21
<i>Esnazarova Zulfiya Baltashovna</i> QORAQALPOQLARNING SHAHAR MADANIYATI (1873 – 1924)	22-27
<i>Axmedov Shaxzod Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDAGI YOSHLAR TASHKILOTLARI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991 – 2017-yillar)	28-36
<i>Mamajonov Alisher, Alisherov Abduvohid</i> IKKINCHI JAHON URUSHI JANG MAYDONLARIDA ANDIJONLIK RAHBAR XODIMLARINING ISHTIROKI	37-43
<i>Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li</i> XALQ TA'LIMI SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK ALOQALARI	44-47
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> INNOVATIVE APPROACHES TO URBAN PLANNING AND TOURISM INFRASTRUCTURE DEVELOPMENT IN NEW UZBEKISTAN (CASE STUDY OF INDIA'S EXPERIENCE)	48-52
<i>Esanova Nilufar</i> 1991-2024 YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT SOHASIDA HAMKORLIGI: NATIJALAR VA ISTIQBOLLAR (HINDISTON VA XITOIY MAMLAKATLARI MISOLIDA)	53-56
<i>Abdug'aniyev Bekzod Abduvali o'g'li</i> O'ZBEK XONLIKLARI VA USMONLI DAVLATI HUKMDORI SULTON SULAYMON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	57-64
<i>Xudoyberdiyev Axrorboy Nabi o'g'li</i> HUDUDIIY YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA	65-70
<i>Zokirjanov Mirzohid Shuxrat o'g'li</i> XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA BOKU NEFT SANOATINING ROSSIYA IQTISODIIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI	71-74
<i>Xudayberdiyev Utkir Toshmuradovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHG'UZOR-BOYSUN-QUMQO'RG'ON TEMIR YO'LINING QURILISHI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIIY AHAMIYATI	75-80
<i>O'rmonov Husniddin Baxriddin o'g'li</i> ULUG' VATAN URUSHINING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTON SANOATI	81-88

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov

MEVA-SABZAVOTCHILIK KLAUSTERLARI:

EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN RIVOJLANISH 89-98

Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali qizi

MOBIL ILOVALAR ORQALI XIZMAT KO'RSATISH:

QULAYLIKMI YOKI NAZORAT VOSITASIMI? 99-104

Xakkulov Akbar Uralovich

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI 105-111

Amonov Mehridin Oromiddinovich

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA RAHBARLIK USLUBI:

AVTOKRATIK RAHBARLAR 112-117

Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna

HUDUDLARDA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLANGANLIK DARAJASINI

BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI 118-125

Yangiboyev Rustam Berdiyarovich

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI 126-131

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

DXSH LOYIHALARIDA INVESTITSION KRAUDFANDING MODELIDAN

FOYDALANISH ORQALI INVESTITSION FAOLLIKNI OSHIRISH VA UNI TURISTIK

XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI 132-143

Eshqobilova Nigoraxon, Qurbonova Safiyabonu

DAVLAT BUDJETINING DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING

NAZARIY ASOSLARI 144-150

Umronov Eldorbek Sodirovich

HUDUDLARDA INNOVATSION XIZMATLAR TURLARI RIVOJLANISHINING

EKZOGEN VA ENDOGEN OMILLARI, ULAR TASNIFI VA KO'RSATKICHLARI 151-159

Turgunov Jasurbek, Siddikova Farangiz

OPPORTUNITIES AND PROSPECTS FOR DEVELOPING A GREEN ECONOMY

IN UZBEKISTAN 160-172

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Ahmedova Dilrabo

YOSHLARNING MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING SHAKLLANISHIGA TARIXIY

JARAYONLARNING TA'SIRI 173-177

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna

NAQSHBANDIYLIKDAGI MUROSA FALSAFASIGA OID QARASHLARINING

FALSAFIY TAHLILI 178-184

Kurbonaliyev Ural Xatamovich

ZAMONAVIY AXLOQIY INQIROZ SHAROITIDA ABU MUHAMMAD ABDULLOH

DORIMIY MEROSINING YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI 185-189

Soipova Mavjuda Karimjanovna

FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA BILISH MASALASI 190-194

<i>Jabborova Saodat Sattorovna</i> MA'NAVIYAT DAVLAT VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING ASOSI	195-198
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER FALSAFIY QARASHLARIDA FRANSIYADA AGRAR MUNOSABATLAR TAHLILI	199-204
<i>Olimova Moxinur Ravshanbek qizi</i> YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MA'NAVIYATNING O'RNI	205-208
<i>Usarkulov Oybek</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDAGI MADANIY, ILMIY-TEXNIKAVIY ALOQALARNING IJTIMOIIY AHAMIYATI	209-214
<i>Majidov Sodiqjon Sadullayevich</i> IJTIMOIIY ZIDDIYATLAR VA IJTIMOIIY FALSAFIY TALQINLAR	215-218
<i>Абдуллаева Икбола Мохировна</i> КНИГА – КАК ОДИН ИЗ ОСНОВНЫХ ВИДОВ ИСКУССТВА – ИСКУССТВО СЛОВА	219-226
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> MUHANDISLIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- FALSAFIY OMILLARI	227-230
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> GLOBAL MEHNAT BOZORIDA SOFT SKILLS VA IJTIMOIIY ONGNING STRATEGIK INTEGRATSIYASI	231-235
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> DESTRUKTIV TARG'IBOT TA'SIRIDAN HIMOYALANISHDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH AHAMIYATI	236-240
<i>Aslanov Said Karimovich</i> TIZIMLI YONDASHUV VA BOSHQARUV FAOLIYATING O'ZORO ALOQADORLIGI	241-244
<i>G'aniyev Elbek Abdizaitovich</i> YOSHLARDA AXLOQIIY INQIROZ KUCHAYISHIDA OMMAVIIY AXBOROT VOSITALARINING ROLI	245-248
<i>Bozarov Dilmurod Mirzarasulovich</i> SINERGETIKANING ONTOLOGIK MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI O'RNI	249-252
<i>Ochilova Nigora Ruzimuratovna</i> GLOBAL MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDA XALQARO KUCHLAR BIRLASHUVINING AHAMIYATI	253-258
<i>Azimov Ozod Mamatkulovich</i> YOSHLARDA EKOESTETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY ASOSLARI	259-264
<i>Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna</i> TARIXIIY MANBALARDA YOSH MUTAXASSISLARNI RIVOJLANTIRISH HAQIDAGI QARASHLAR	265-271
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Мамбетов Сердар Ахмедович</i> СПОСОБЫ ПЕРЕВОДА РУССКИХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ НА КАРАКАЛПАКСКИЙ ЯЗЫК	272-280

<i>Qurbanova Hilola Maqsadbek qizi</i> PRACTICAL NEEDS' ANALYSIS OF SOME BILINGUAL STUDENTS	281-288
<i>Rakhmonova Yulduz Khusanovna</i> A HETEROGENEOUS LEGACY: EXAMINING HEMINGWAY'S STYLE IN HIS LATER YEARS	289-295
<i>Yakubova Nilufar Egamberganovna</i> ESKI O'ZBEK TILIDA TAF'IL QOLIPLI O'ZLASHMALAR	296-301
<i>Sadullayeva Muxlisa Xamrayevna</i> ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYALARIDA BADIY KONFLIKT MASALASI	302-307
<i>Shomurodova Shahlo, Axmedjanova Farida</i> MARGARET DRABBLING "THE MILLSTONE" ASARIDAGI NOYOB KO'RINISH	308-311
<i>Nazarov Sardor Shamurodovich</i> A COMPARATIVE STUDY OF THE STRUCTURAL-SEMANTIC FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK WORD COMBINATIONS	312-315
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> HAQORAT VA TAHDIDLAR BILAN BOG'LIQ DA'VOLARNI SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADAN O'TKAZISH ALGORITMI	316-325
<i>Файзуллина Наргиза Дамировна</i> СОВРЕМЕННЫЕ СИНОНИМЫ И ТЕРМИНЫ КОМПЬЮТЕРНО-ИГРОВОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ	326-331
<i>Sodiqova Dinora Ilhom qizi</i> ANALYSIS OF PRINCIPLES OF CONVEYING FEELINGS CONCERNING LITERARY TRANSLATION	332-337
<i>Nazimova Himmatoy</i> "DEV" VA "YALMOG'IZ" OBRAZI ETIMOLOGIYASI, KELIB CHIQISHI VA MADANIY ILDIZLARI TAHLILI	338-342
<i>Arziqulova Xurshida, Mustanova Shohista</i> SHARQ VA G'ARB DRAMATURGIYASI: MADANIY ALOQALAR VA ILHOM MANBALARI	343-348
<i>Azizova Feruza Rejaveliyevna</i> TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION G'OYALAR VA TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ZAMONAVIY TA'LIMNING BOSH STRATEGIYASI	349-353
<i>Agzamova Gulrux Ravshan qizi</i> XITOIY TILIDAGI MUHOJAAT ATAMALARINING UMUMIY VA XUSUSIY BELGILARI	354-358
<i>Sherkulov Sardor Komilovich</i> SOCIAL PROBLEMS IN THE WORKS OF THOMAS HARDY: AN INVESTIGATION OF CLASS INEQUALITY, GENDER AND INDUSTRIALIZATION	359-364
<i>Rasulov Zubaydullo, G'ayratova Oybegim</i> DISKURS — LINGUAPRAMAGMATIK YONDASHUV OBYEKTI SIFATIDA	365-368
<i>Bozorova Umida Qilichovna</i> BADIY KIRITMALARNI ROSSIYADA O'RGANILISHI	369-372
<i>Nuriddinova Huriyat Baxtiyorovna</i> TOPISHMOQLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	373-376

Mamadiyeva Hilola

TAOM NOMLARINING TARJIMA JARAYONIDA MADANIY TAFOVUTLARNING

TA'SIRI 377-384

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Abdullayeva Nodira Odil qizi

OILAVIY (MAISHIY) ZO'RAVONLIK OMILLARI MAJMUASI 385-393

Jo'raqulov Javohir Musoqul o'g'li

TOVLAMACHILIK JINOYATINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN

FOYDALANIB SODIR ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 394-399

Otamirzayev Oybek Murodullo o'g'li

YER OSTI SUVLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING

PREDMETI VA USULLARI 400-407

Утебаев Саламат, Калбаева Эльдора

ВОПРОСЫ УГОЛОВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ

ХУЛИГАНИЯ В НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ 408-413

Nuriddinov Ismoil O'lmas o'g'li

BURHONUDDIN MARG'INONIYNING "HIDOYA" ASARIDA JINOYAT VA JAZO

MUVOZANATIGA OID AYRIM MASALALAR 414-420

Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi

SUN'IY INTELLEKTNING NOTO'G'RI XULOSALARI (GALLYUTSINATSIYALAR):

MOHIYATI, SABABLARI VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ZARURATI 421-432

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

XALQARO MEHNAT STANDARTLARI VA MEHNAT SHAROITLARINI

TARTIBGA SOLISH 433-438

Avezov Umidjon Toshpulatovich

O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINING RIVOJLANISH

BOSQICHLARI TAHLILI 439-446

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Максудов Улугбек Курбанович

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОСТИ

СТУДЕНТОВ В ИННОВАЦИОННЫХ И СТАРТАП-ПРОЕКТАХ

В УСЛОВИЯХ МИРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 447-453

Lutfillayev Maxmud, Egamberdiyeva Feruza

SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI, TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 454-458

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR 459-463

Jamolova Gulbadanbegim, Muhammadiyeva Elmera

TALABALARDA TAHLILIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK

ASOSLARI 464-468

Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN KOMPLEKS

FOYDALANISHNING METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH 469-478

<i>Ishonkulov Ashraf Kurbonkulovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TA'LIM JARAYONIDA INFORMAL TA'LIM YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZAMONAVIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	479-484
<i>Esboganova Baxit Daribayevna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK DARSLARIDA O'QUVCHILARGA AMALIY MASHG'ULOTLAR OLIB BORISH METODIKASI	485-490
<i>Kamalova Dilnavoz, Amurillayeva Munira</i> TEKNOLOGIYA DARSLARINI O'TISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	491-495
<i>Абдуллаева Дилдора Улугбековна</i> АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРАВОВЫХ ДИСЦИПЛИН В ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗАХ	496-503
<i>Xamidova Zaynura Ramazonovna</i> STEAM TA'LIM TEKNOLOGIYASINING TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK MUAMMOLAR	504-508
<i>Mustayeva Guldora, Mustayeva Guliston</i> SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF REFLECTION MECHANISMS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY	509-514
<i>Avazova Munisa</i> TA'LIM DIZAYNIDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASINI OSHIRISH: GAMIFIKATSIYA VA INTERAKTIV METODLARNING TA'SIRI	515-517
<i>Abdullayeva Mohigul, Fazlitdinov Muhammadali</i> SUN'IY INTELLEKT VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING XXI ASRDAGI ROLI HAMDA ULARNING TURLI SOHALARGA TA'SIRINI O'RGANISH	518-521
<i>Urinova Dilbar Abdusamat qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM FAOLIYATINI MODERNIZATSIYA QILISHDA TARBIYACHILARNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	522-526
<i>Turdaliyeva Qizlarxon Ilhomjon qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI O'QITISHNING FUNKSIONAL YONDASHUV METODLARI	527-532
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA AMALIY MASHG'ULOTLARDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	533-539
<i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i> KO'P MILLATLI MAKTABLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR	540-543
<i>Qarshiyeva Muborak, Karshiyev Jaxongir</i> BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS)GA TAYYORLASH USULLARI	544-547
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM PEDAGOGIKASIDA O'QUVCHILARDA NAFOSAT TARBIYASINING O'RNI	548-552

<i>Otabayev Iskandar Abdug'aniyevich</i> KREDIT-MODUL TIZIMI ORQALI O'QUV REJALARINI ISHLAB CHIQISH VA ULARNI AMALIY TATBIQ ETISH BOSQICHLARI	553-562
<i>Bozorov Zokir, Ravshanova O'g'ilshod</i> BO'LAJAK MATEMATIKA FAN O'QITUVCHILARINING PLANIMETRIYA BO'YICHA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINING ROLI	563-568

Received: 15 April 2025

Accepted: 1 May 2025

Published: 10 May 2025

Article / Original Paper

IMPACT OF CENTRAL BANK INTEREST RATE POLICY ON INTEREST RATE RISK OF BANKS

Khakkulov Akbar Uralovich

Researcher of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek

Abstract. This article is devoted to consideration of the central bank's policy on managing interest rates and risks of commercial banks, which is aimed at working out and regulating interest rate policy. In addition, the article analyzes the dynamics of changes in the basic rates and rates of reserve requirements of the central bank and the annual inflation rate.

Keywords: bank assets, bank liabilities, interest rate, interest on loans, interest on deposits, interest rate risk, basic rate, rate of reserve requirements.

MARKAZIY BANK FOIZ SIYOSATINING BANKLARNING FOIZ RISKIGA TA'SIRI

Xakkulov Akbar Uralovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarining foizlarni boshqarish va unda yuzaga keladigan risklarni boshqarishga oid markaziy bankning foiz siyosatini shakllanishi va tartibga solishga mo'ljallangan siyosati tadqiq qilingan. Shuningdek maqolada markaziy bankning asosiy va majburiy zaxira stavkalari hamda yillik inflyatsiya darajasining o'zgarish dinamikasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bank aktivlari, bank passivlari, foiz stavkasi, kredit foizi, depozitlar foizi, foiz riski, asosiy stavka, majburiy zaxira stavkasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N18>

Kirish. Mamlakatimizning yangi davrida olib borilayotgan oqilona va izchil iqtisodiy siyosat orqali katta muvaffaqiyat va natijalarga erishilmoqda. Bozor munosabatlarining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish zahirida iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqaro bank tizimi talablariga mos keluvchi mahalliy banklar faoliyatini tashkil qilish va ular faoliyatini yanada takomillashtirish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. So'nggi yillarda bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Bu esa, amalga oshirgan keng ko'lamli, uzoqni ko'zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish, erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo'lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minlashda xizmat qiladi.

Banklarning foiz siyosati va foiz riskini samarali boshqarish uning muhim subyekti bo'lgan kredit va depozitlar, jumladan markaziy bank va uning olib borayotgan faoliyat va siyosatlarini o'rganishni, ularning ishlash usullari, funktsiya va operatsiyalarini bilishni taqozo

qiladi. Iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun iqtisodiyotni samarali boshqarishda va iqtisodiyotdagi pul massasini tartibga solishda Markaziy bankning pul-kredit siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlaridagi kabi ikki pog'onali bank tizimi mavjud. Uning birinchi pog'onasini boshqa turli mulkchilik shaklidagi tijorat banklari faoliyatini hamda mamlakatda pul muomalasini tartibga solib turuvchi, "banklar banki" hisoblangan Markaziy bank boshqarib turadi. Bank tizimining ikkinchi pog'onasini xo'jalik yurituvchi subyektlarga kredit – hisob-kitob yuritish xizmatlarini ko'rsatadigan, aktiv va passiv hamda vositachilik operatsiyalarini amalga oshiradigan turli mulkchilik shakliga asoslangan tijorat banklari tashkil etadi. Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqadi va bunda iqtisodiy konyunkturaning tahlili va istiqbol ko'rsatkichlarini, muomalada bo'lgan pul massasining iqtisodiy jihatdan asoslangan chegaralarini, foiz siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Jahon tajribasida markaziy bankning foiz siyosati pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Markaziy banklar foiz siyosatini olib borish orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga va tijorat banklarining foizlarini boshqarishga ta'siri yuqoridir. O'z navbatida tijorat banklarida yuzaga keladigan foiz riskini tartibga solish va boshqarish zamonaviy bank tizimining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish yo'lida moliyaviy xizmatlar bozorida tijorat banklari faol ishtirok etib kelmoqda. Ular tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga turli xildagi xizmatlar ko'rsatilmoqda. Aholiga taklif etilayotgan va uning turli qatlamlari uchun qulay va manfaatli bo'lgan omonat turlarining soni oshib bormoqda. Yuridik shaxslarga, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga turli yo'nalishlarda qisqa va uzoq muddatli kreditlar berilmoqda, banklarning lizing operatsiyalari hajmi ortib bormoqda.

Bank operatsiya va xizmatlari uchun narx banklarda summa ko'rinishida emas, balki yillik foiz stavkasi, tarif va kurs shaklida o'rnatilishi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Masalan,

birinchidan, narx foiz ko'rinishida depozit, kredit kabi xizmatlarga belgilanadi;

ikkinchidan, narx tarif ko'rinishida vositachilik, trast, mijoz ko'rsatmasiga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish va boshqa shu kabi xizmatlarga belgilanadi;

uchinchidan, narx kurs ko'rinishida asosan korporativ va yuridik shaxslarga naqd chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyalariga qo'llaniladi. Bunda, bankning bahosi bo'lib, valyutani sotib olish va sotish o'rtasidagi farq tushuniladi.

Foiz so'zi lotincha "pro-centum" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida yuzdan bir degan ma'noni anglatadi. Tijorat banklari amaliyotida resurslar jalb qilish va joylashtirish borasida bir qancha foiz stavkalardan keng foydalaniladi. Foizlar bankning foiz siyosatiga muvofiq korporativ va jismoniy shaxs bo'lgan mijozlar uchun tegishli bo'lim tomonidan ishlab chiqiladi hamda bank Boshqaruvi Kengashining qaroriga asosan amaliyotga joriy etish uchun har yilning boshida tasdiqlanadi.

Bank operatsiyalari bo'yicha bank tomonidan to'lanadigan va bank tomonidan undiriladigan foizlar miqdori bankning alohida hujjatlarida aks ettiriladi. Ilgari respublikamiz banklarida kredit siyosati, depozit siyosati, foiz siyosati degan tushunchalar bo'lmagan. Xalqaro bank amaliyotini o'rganish natijasida milliy bank tizimida yuqorida sanab o'tilgan bank

siyosatlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. Dastlab foiz siyosati depozit va kredit siyosati ichiga kirgan bo'lsa, keyinchalik alohida foiz siyosati ishlab chiqilib, bank amaliyotiga tatbiq etildi.

Tijorat banklarining asosiy ommaviy iqtisodiy funksiyasi moliyaviy vositachilik bo'lib, unda pul oqimlari harakati bo'yicha pul mablag'lari ko'p bo'lgan subyektlardan mablag'ga muhtoj subyektlarga o'tkazishni tashkillashtiriladi. Ushbu funksiyalarni bajarishda banklar foiz ko'rinishida daromad olishadi va bu orqali rivojlanishiga asos bo'ladi. O'z navbatida, mablag'larni joylashtirish qarz stavkasidan yuqori ma'lum bir foiz stavkalar asosida bo'ladi [2]. Bu aloqalar bank ishini tashkillashtirishda tijorat banklarining foiz siyosatini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha bank muassasalari tijorat banklarga xos bo'lgan operatsiyalar va xizmatlarni ko'rsatib, ular evaziga ma'lum miqdorda daromad ko'rib kelmoqdalar. Shu bilan birga, mijozlarning bo'sh turgan pul mablag'larini bankka jalb qilib, ulardan samarali foydalanishga harakat qilmoqdalar. Demak, banklar mijozlar bilan sherikchilik munosabatlarini o'rnatar ekan, ular o'z xizmatlariga mijoz uchun qulay bo'lgan narxlarni belgilashlari lozim. Negaki, banklararo raqobat sharoitida mijoz qaysi xizmatga ehtiyoj sezmasin, u o'zi uchun qulay bo'lgan narxlarni taklif etayotgan bankni tanlaydi. [3]

Foiz siyosati – pul mablag'larini jalb qilish va joylashtirish bilan bog'liq bank operatsiyalarini amalga oshirishda foiz stavkalarni belgilashni muvofiqlashtiruvchi tadbirlarning yig'indisidir. Foiz siyosati deganda xizmatlarni turli usul va uslub, yondashuv va yo'nalish hamda tamoyillar asosida mijozlarga taqdim etgan holda daromadni maksimallashtirishni nazarda tutuvchi bankning ichki hujjati tushuniladi. Foiz siyosati bank biznes rejasining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, kredit, depozit, tarif siyosatlari kabi bankning faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Foiz siyosatida asosiy e'tibor pul bozorining barqarorligini va bank depozitlari jozibadorligini ta'minlashga, jumladan, aholi omonatlari bo'yicha real foiz stavkalarining ijobiyligini saqlab qolish hamda tijorat banklari depozitlar portfelidagi uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirishga, shuningdek, iqtisodiyotning real sektoriga ajratiladigan kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining maqbulligini ta'minlashga qaratiladi. Foiz stavkalarni tabaqalashtirish – foiz stavkalarni jalb qilinayotgan va joylashtirilayotgan mablag'larning miqdori, muddati, maqsadi, ta'minlanganlik darajasi, tarmoq yo'nalishi va boshqa omillarni hisobga olgan holda belgilashdir.

Foiz siyosatining asosiy maqsadi — mablag'larni jalb qilish va joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish jarayonidagi yondashuvlar va boshqarish mexanizmlarining umumiyligini ta'minlash orqali bank faoliyatining foydaliligi va samaradorligini ta'minlashdan iboratdir.

Foiz siyosatini samarali boshqarish quyidagilarni ko'zda tutadi:

- bank aksiyadorlari va omonatchilari manfaatlarini himoya qilish;
- bankning resurs bazasini mustahkamlash orqali uning likvidlilik darajasini ta'minlash;
- maqbul darajada foyda olishni ta'minlash orqali marjani o'rnatish;
- vakillik hisobvarag'idagi mablag'lardan samarali foydalanish uchun foiz stavkalarni boshqarish orqali bank daromadlari tarkibidagi foizli daromadlar salmog'ini oshirish.

Foiz siyosatida inflyatsiya darajasi, pul massasining o'sishi, banklararo foiz stavkalari, qayta moliyalashtirish stavkasi ham inobatga olinadi. Bu ko'rsatkichlar darajasi qancha ko'p

bo'lsa, oshib borsa, kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalari ko'tariladi va aksincha. Har yili O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan turli parametrlarni hisobga olib, qayta moliyalash stavkasi belgilanadi.

Resurslarni jalb qilishning asosiy yo'nalishlari. Bank o'z faoliyatini amalga oshirishda yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb qiladi. Xususan aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun resurslar bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lardan tashkil topadi.

Bankning resurslarni jalb qilish sohasidagi siyosati quyidagilarga asoslangan holda belgilanadi:

Markaziy bank tomonidan majburiy zaxiralarga deponentlanadigan mablag'lar bo'yicha belgilangan stavkalar [4];

ma'muriy boshqaruv xarajatlarni qoplash darajasi;

jalb qilinayotgan mablag'larning muddati, miqdori hamda foizlarni hisoblash va to'lash tartibi;

jalb qilingan mablag'larni maqsadli yo'naltirish darajasi.

Bank tomonidan chiqariladigan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz stavkalar bankning mazkur foiz siyosatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan muddatli depozitlarga jalb qilinadigan mablag'lar bo'yicha foiz stavkalarini belgilash mahalliy moliya bozoridagi konyunktura va Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining o'zgarish dinamikasidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Muhokama. Foiz riskini samarali boshqarish maqsadida uzoq muddatga taqdim etiladigan kredit qo'yilmalarning foiz stavkalarini o'zgartirish shartlarini ko'zda tutish mumkin. Foiz stavkasini qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'luvchi omillar bank va qarz oluvchi o'rtasida tuziladigan ikki tomonlama shartnomada aks ettirilishi lozim. Foiz stavkalarini o'zgartirishga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi yoki mahalliy moliya bozori stavkalarining o'zgarishi, kredit portfeliga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bank xarajatlarini oshishi va boshqa sabablar asos bo'lishi mumkin.

Depozit bozoridagi foiz stavkalarini o'zgaruvchanligini bankning moliyaviy holati va pul mablag'lari oqimiga ta'sirini baholash maqsadida bank foiz riskining tahlili muntazam ravishda amalga oshiriladi. Bunda, mablag'larni jalb qilish va joylashtirish stavkalarini boshqarish bankning hududlar qirqimidagi moliyaviy holatining tahlili hamda biznes-rejaning daromadlar bo'yicha belgilangan parametrlari bajarilishi orqali amalga oshiriladi.

Bank tomonidan amalga oshirilayotgan foiz siyosati va alohida foiz stavkalari bo'yicha nazorat bankning amaldagi umumiy nazorat tizimi doirasida amalga oshiriladi.

Banklarning depozitlarni jalb qilish sohasidagi faoliyati, shu jumladan jalb qilingan depozitlarga foiz stavkalarini belgilashi, depozitlarni va ularga hisoblangan foiz to'lovlarini bank va mijoz o'rtasida tuzilgan depozit shartnomalariga muvofiq o'z vaqtida qaytarishi banklarning depozit va foiz siyosatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Banklar jalb qilinadigan depozitlar bo'yicha foiz stavkalari darajasini Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi hamda inflyatsiya darajasining so'nggi yillardagi o'zgarishidan kelib chiqqan holda belgilaydilar.

Markaziy bank bank omonatchilari, qarz oluvchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilish, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining asossiz o'sishini oldini olish va shu bilan bog'liq xatarlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik hamda bank tizimi barqarorligini

ta'minlash maqsadida muntazam ravishda banklarning depozitlar bo'yicha foiz stavkalari darajasini monitoring qilib boradi.

Bunda, Markaziy bank depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi qayta moliyalash stavkasidan oshgan banklarda foiz siyosatining, shu jumladan foiz darajasining asosli ekanligini aniqlash maqsadida mazkur banklarning foiz siyosatini va moliyaviy holatini alohida o'rganib chiqadi.

Markaziy bank muayyan bir bankning jalb qilingan depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasining asossiz ravishda yuqoriligini, mazkur bankning:

aktivlari va kapitali rentabelligi darajasi;

foizli daromadlarining yalpi daromaddagi ulushi va aktivlarga nisbati;

foizli daromadlarning foizli xarajatlarga nisbati;

foizli xarajatlarning umumiy majburiyatlarga nisbati;

jalb qilinayotgan mablag'larning aylanish muddatlari va bank aktivlarining rentabelligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi;

omonatga jalb qilinayotgan mablag'lardan foydalanishning samaradorligi darajasi kabi ko'rsatkichlarga ta'sirini hamda bank tizimi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlardan pastligi yoki yuqoriligini tanqidiy ko'rib chiqadi va tahlil qiladi.

Banklarda depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi asossiz oshgan holatlar aniqlanganda Markaziy bank mazkur banklardagi o'rtacha foiz stavkalarining darajasini maqbullashtirish (pasaytirish) bo'yicha banklarga ko'rsatma beradi.

Natijalar. Hozirgi kunda O'zbekiston bank tizimi mustahkam bazaga ega bo'lishi bilan birga, iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisi sifatida ham ajralib turibdi. Shu bilan birga, O'zbekiston respublikasi xalqaro moliya bozoring qatnashchisiga aylanishi, bank faoliyatini yanada erkinlashtirish, bank xizmatlari bozorida raqobatning oshishi tijorat banklari tomonidan mablag'lar jalb qilinishi va o'z o'rnida kredit operatsiyalarni bajarishda foiz siyosatini ishlab chiqishi va uni to'g'ri yuritilishi talab etiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati inflyatsiya darajasining belgilangan prognoz ko'rsatkichlar doirasida bo'lishini ta'minlash bilan birga, banklarning investitsion faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy bank tomonidan iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabini qondirish va makroiqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash maqsadida hamda inflyatsiya darajasidan kelib chiqqan holda qayta moliyalash stavkasi doimo o'zgartirib borilmoqda.

Bank foiz stavkasiga turli omillar ta'sir etadi. Biz bank kreditlari bo'yicha foiz stavkasiga ta'sir etuvchi omillariga to'xtalib o'tamiz. Ulardan asosiylari quyidagilar:

1. Pul bozoridagi talab va taklifning nisbati, ya'ni bozorda qanday miqdorda qarz puliga talab bor va unga nisbatan qanday miqdorda qarzga beriladigan pul chiqarilgan. Talab oshsa, foiz ortadi, taklif oshsa, u kamayadi.

2. Qarzga olinadigan pulni ishlatishdan kutiladigan naf darajasi, aniqrog'i shu pulning iste'mol qiymati. Qarz puli tadbirkor uchun ko'p foyda keltirsa yoki iste'molchi ehtiyojini to'laroq qondirsa, foiz yuqori bo'ladi, aks holda u pasayib ketadi.

3. Qarzni to'lash muddati va sharti. Agar qarz uzoq muddatga berilib, uni sekin-asta kichik-kichik qismlarga bo'lib, bimalol qaytarish mumkin bo'lsa, qarzdor yuqori foizga rozi bo'lishi mumkin. Agar qarz qisqa vaqtga berilsa, uni bir yo'la to'lash shart bo'lsa, qarzdor past


foizni ma'qul ko'radi. Demak, qarz qanchalik uzoq muddatga berilsa, shunchalik uni ishlatib daromad ko'rish mumkin va shu hisobdan foiz to'lash yengil bo'ladi.

4. Qarzning qanday valyutada berilishi. Agar qarz erkin konvertatsiyaga ega bo'lgan valyutada berilsa, foiz yuqori belgilanadi, agar u milliy valyutada berilsa, foiz nisbatan past o'rnatiladi.

5. Inflyatsiya darajasi. Inflyatsiya yuz bersa, qarzga berilgan pul egasiga qaytib kelgunicha o'z qadrini qisman yo'qotadi. Bunda pul egasi yutqazadi. Shu sababli, yuqorida ta'kidlanganidek, foiz inflyatsiyani hisobga olib o'rnatiladi.

6. Qarz berishning risk darajasi. Agar qarzning qaytib kelishi kafolatlansa, foiz past, agar bu riskli bo'lib, qarz qaytishi shubhali bo'lsa, foiz yuqori bo'ladi. Yuqori va past foiz o'rtasidagi farq pul egalari uchun ma'lum darajada qarz xatarini kamaytiradi, chunki bir yerda foizning kamligi, boshqa yerda uning ortiq bo'lishi bilan qoplanadi.

Shunday qilib, foiz stavkasini belgilashda turli omillar hisobga olinib, ularga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, inflyatsiya darajasi, kredit riski darajasi, pul bozoridagi talab va taklif, qarzni to'lash muddati va shartlari, kredit yoki depozit turi, ularning muddatlarini kiritish mumkin. Bank resurslarining iqtisodiy samaradorligi va daromadlilikini ta'minlanishi bankning aktiv operatsiyalar bo'yicha foiz stavkalarni boshqarish mexanizmiga bog'liqdir. Foiz stavkalarini o'rnatishda ularning har biri hisobga olinishi lozim bo'ladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash (asosiy), majburiy zaxira stavkalari va inflyatsiyaning yillik darajasi, foizda [5]

Rasmdan ko'rish mumkinki, foizlarga ta'sir qiluvchi omillardan biri bo'lgan inflyatsiya darajasi 2006-yildan boshlab pasayib 2016-2018-yillarda ko'tarilgan. 2024-yilda ham inflyatsiya darajasi avvalgi 2023-yilga nisbatan o'sgan. 2024-yilda inflyatsiya va pul massasining maqsadli parametrlaridan kelib chiqib hamda tijorat banklarida uzoq muddatli resurs bazasini yanada kengaytirish maqsadida, majburiy rezervlar normasi, yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari uchun – 4 foiz, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari uchun – 14 foiz miqdorida o'zgartirilmasdan

qoldirildi. Banklarning foiz stavkalariga ta'sir qiluvchi omillardan biri Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi bo'lib, bu ko'rsatkich ham 2024-yildan e'tiboran 14,0 foizdan 13,5 foizga tushirildi.

Tijorat banklari tomonidan kreditlar va depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini shakllantirishda pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari hisobga olinadi. Pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari esa Markaziy bankning pul-kredit siyosati va boshqa bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Shunday qilib, respublikadagi barqaror makroiqtisodiy holat va yuritilayotgan o'zgaruvchan pul-kredit siyosati pul va moliya bozorlaridagi foiz stavkalari, jumladan tijorat banklarining kreditlari va depozitlari bo'yicha foiz stavkalari dinamikasida o'z aksini topadi.

Xulosa. Respublikamiz tijorat banklari passivlarining umumiy hajmida markazlashgan kreditlarning salmog'i kichik. Bu holat Markaziy bankning qayta moliyalash stavkalari orqali tijorat banklari kreditlari va depozitlarining foiz stavkalariga ta'sir qilish darajasini cheklaydi. Banklarning depozit bazasi ular aktiv operatsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi, demak Markaziy bankdan olingan kreditlarning tijorat banklari resurslarining hajmidagi salmog'ini pasayishi tijorat banklarining depozit bazasini yomonlashuviga olib keladi.

Respublikamizda Markaziy bankning diskont va lombard kreditlari berish amaliyotini joriy qilish yo'li bilan qayta moliyalash siyosatining samaradorligini oshirish lozim. Buning uchun, respublikamizda tratalar muomalasini joriy qilish hamda lombard kreditlari hajmini oshirish maqsadida, garov ta'minoti sifatida korporativ qimmatli qog'ozlarni ham joriy etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Markaziy bankning qayta moliyalash siyosatini takomillashtirish tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalariga ta'sir etish imkonini beradi. Natijada bu holat iqtisodiyotning real sektori korxonalarining tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunday sharoitda foiz stavkalarining barqarorligini ta'minlash muhim hisoblanadi va bu kreditlash hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. World Bank. 2020. Small beginnings for great opportunities: Lessons learned from 20 years of microfinance projects in IFC. IFC Smart Lessons Book. Washington, D.C.: World Bank Group.
2. Basel Committee on banking supervision. Basel-III: A global regulatory framework for more resilient banks and banking systems-Basel III, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Moliyaviy barqarorlik shaphi" 2024 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 25.04.2018 yilda ruxsatdan o'tgan 3002-sonli "Tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida depozitga o'tkaziladigan majburiy rezervlari to'g'risidagi Nizom.
5. <http://www.cbu.uz> — O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pacmiy veb-cayti ma'lumotlari.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).